



## NAMANGAN VILOYATI YANGIQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 5-dekabr

728-6-90-Q/24

Yangiqo‘rg‘on tuman  
hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 3-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 22-noyabrda PQ–402-son qarori ijrosi haqida” 576-6-0-Q/24-sonli qarori haqida**

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 3-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 22-noyabrda PQ–402-son qarori ijrosi haqida” 576-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 211-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 3-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 22-noyabrda PQ–402-son qarori ijrosi haqida” 576-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–402-son qarori bilan:

2025-2030 yillarda Bachadon bo‘yni va ko‘krak bezi saratonini nazorat qilish dasturini (keyingi o‘rinlarda - Dastur) amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha, Dasturni amalga oshirish doirasida:

tibbiyotning birlamchi bo‘g‘inida 30-65 yoshdagi ayollarning elektron bazasi (ro‘yxati) shakllantirilishi, ularni tibbiy ko‘rikka taklif qilish tizimi yaratilishi;

har yili 30-50 yoshdagi ayollarda bachadon bo‘yni saratoni skriningi odam papillomasi virusini polimeraza zanjirli reaksiya tekshiruv usuli orqali aniqlash hamda suyuqlik sitologiyasi usulida tekshirish yo‘li bilan amalga oshirilishi, bunda manfiy natija aniqlanganda ular 10 yildan so‘ng qayta tekshiruvdan o‘tkazilishi, musbat natija aniqlangan ayollar qo‘shimcha tekshiruvga yo‘naltirilishi;

saratonoldi holatlar aniqlangan ayollar ambulator davolash uchun Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi va uning hududiy filiallariga yo'naltirilishi;

30-65 yoshdagi ayollar har 2 yilda bir marotaba tibbiyot xodimlari tomonidan birlamchi saralashdan o'tkazilishi, bunda ko'krak bezi tekshiruvi 45 yoshgacha bo'lgan ayollarda ultratovush diagnostikasi usulida, 45-65 yoshdagi ayollarda mammografiya orqali amalga oshirilishi;

skrining natijasida onkologik kasallikka chalinganligi aniqlangan bemorlarni tashxislash va davolash bilan bog'liq xarajatlar Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi;

2025-yil 1-yanvardan boshlab:

a) tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalariga sog'liqni saqlash tizimida maqbullashtiriladigan shtat birliklari hisobidan quyidagi shtat birliklari kiritilganligi;

onkonazorat xonalari uchun akusher-ginekolog shifokor;

mobil va statsionar mammograflar ishini 2 ta smenada tashkil etish uchun rentgen-laborantlar;

b) Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va tibbiy radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Mammografiya tasvirini o'qish markazi tashkil etilsin hamda tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarida amalga oshiriladigan ko'krak bezi saratoni bo'yicha skrining natijalari ushbu markazning yagona riding tizimiga integratsiya qilinishi;

s) Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazida odam papilloma virusi diagnostikasi uchun qo'llanadigan test tizimlari sifatini nazorat qilish bo'yicha referens- laboratoriya faoliyati yo'lga qo'yilishi;

Saraton kasalligi nazorati sohasidagi loyihalarning amalga oshirilishini muvofiqlashtiruvchi kengash (keyingi o'rinlarda - Kengash) 2-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilishi;

belgilanishicha;

Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy- amaliy tibbiyot markazi hamda Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va tibbiy radiologiya ilmiyamaliy tibbiyot markazlari Kengashning ishchi organi hisoblanishi;

onkologik kasalliklarni tashxislash va davolash bo'yicha tibbiy jihozlar, uskunalar va sarflov materiallari xaridi majburiy tartibda Kengash bilan kelishilishi va taqsimlanishi;

bunda Kengash tomonidan tibbiy jihozlar, uskunalar va sarflov materiallarini muassasalar kesimida ratsional taqsimlash maqsadida ma'lumotlar bazasi shakllantirilishi;

Kengashga bachadon bo'yni va ko'krak bezi saratoni skrining tekshiruvlari bilan qamrab olinadigan ayollar yoshini moliyalashtirish manbalari asosida mustaqil belgilash vakolati berilishi;

quyidagilar Kengashning asosiy vazifalari etib belgilanishi;

bachadon bo'yni va ko'krak bezi saratonini nazorat qilishga qaratilgan loyihalarni (keyingi o'rinlarda-loyihalar) muvofiqlashtirishi;

loyihalar doirasida faqat sinovdan o'tgan testlar, farmatsevtika mahsulotlari hamda vaksinalar, dalillarga asoslangan diagnostika va davolash usullari qo'llanishini nazorat qilishi;

Dasturga oid xaridlarni amalga oshirishda, mablag'lar va tibbiy uskunalarni taqsimlashda, qaror qabul qilishda Kengash a'zolarida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik, jamoat salomatligi etikasiga asoslanib qarorlar qabul qilishi;

bachadon bo'yni va ko'krak bezi saratoni yuzasidan skrining tekshiruvlari amalga oshiriladigan ayollar yoshini sog'liqni saqlash bo'yicha xalqaro tashkilotlar tavsiyalariga muvofiq qayta ko'rib chiqish hamda aniq moliyalashtirish manbalaridan kelib chiqib belgilashi;

loyihalarning natijasi haqidagi ma'lumotlar Sog'liqni saqlash vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilib borilishini ta'minlashi;

Kengash ayollarning bachadon bo'yni va ko'krak bezi saratoni skriningi bilan qamrovini kengaytirish uchun xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining mablag'larini muntazam jalb qilib borish choralari ko'rishi; Bachadon bo'yni va ko'krak bezi saratonini erta aniqlash hamda nazoratini amalga oshirish uchun zarur tibbiy jihozlar ro'yxati 3-ildavaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda joylarda "mahalla yettiligi"ga ayollar va ularning oila a'zolari orasida onkologik kasalliklarning oldini olish, ularni erta aniqlash, davolash hamda oqibatlari haqida tushuntirish ishlarini o'tkazishni tashkil qilib borishi;

O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi va Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda:

turli maqsadli guruhlar (o'smirlar, katta yoshli ayollar, erkaklar) uchun xavfli o'sma kasalliklari va ularning xavf omillari, profilaktikasi, erta aniqlash va davolashning muhimligi to'g'risida televideniya, radio, internet va bosma ommaviy axborot vositalari orqali keng ko'lamli axborot kampaniyalarini tashkil etishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman tibbiyot birlashmasi (L.Axmedova) keng formatli tashqi reklama obyektlariga maxsus bannerlarni o'rnatish va aholi gavjum joylarda roliklarni tizimli namoyish qilish choralari ko'rsin;

manfaatdor bo'lim va idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-402-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari E.Mexmanov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Najmiddinov**